
OILA – JAMIYAT VA DAVLAT HIMOYASIDA,

Oila – jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, barqaror va tinch tuzilmasidir. Bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’naviy va axloqiy tarbiya ham topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 12-13 may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashriflari davomida oilaviy ajrimlarning oldini olish yuzasidan ham bir qator topshiriq va vazifalar belgilandi. Shuningdek, faollar bilan o‘tkazilgan yig‘ilishda Farg‘ona viloyati bo‘yicha ajrimlar soni keskin ortib ketganligi tanqidiy muhokama qilingan.

Bu borada Davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida Farg‘ona shahrida ham bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajrimlarni oldini olish bo‘yicha "Shodiyona" MFYda ajrim yoqasida turgan oilalar bilan suhbat olib borildi.

Shahar hokimligining Ishchi guruhi tomonidan tashkillangan tadbirda oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari G.Jo‘rayeva, shahar hokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i D.Xolmatova, "Yangi chek" masjidi bosh imom noibi L.Suyarqulov, "Ahmadjon qori" masjidi imom xatibi F.Abduraxmonov, fuqarolik ishlari bo‘yicha Farg‘ona tumanlararo sudning sudyasi M.G‘ofurov va 4-sektor hududidagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari hamda ajrim yoqasida turgan o‘nga yaqin oilalar ishtirok etdilar.

Oilada yuksak ma’naviy muhitni tashkil etish juda muhim. Bunda oila a‘zolarining, ayniqsa, er va xotinning o‘zaro murosa-madoraga borishi, g‘azabi kelganda uni yengishi va shirinso‘z bo‘lishi, oilaviy sirlarni ko‘chaga olib chiqmasligi, shu bilan birga, farzandlarni tirik yetim bo‘lib qolishlari singari bir qator omillar juda katta ahamiyat kasb etishi bo‘yicha mutaxassislar tomonidan tushunchalar berildi.

Ajrim yoqasida turgan ushbu oilalar aytib o‘tilgan so‘zlardan xulosa chiqardilar hamda ikkita oilani yarashtirishga erishildi.

Joylarda ajrim yoqasida turgan oilalarni yarashtirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlari va davra suhbatlari davom etmoqda.

2022-06-18 08:59:13